

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TILLARNI  
INTERFAOL USULLAR ORQALI O'RGATISH**

*Abdinamatova Malika Sarvar qizi*

*malikabdunamatova1007@gmail.com*

*+998-93-946-90-40*

*SamDCHTI 2-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni interfaol usullar va ayrim metodlardan samarali foydalangan holda o'rgatish haqida ma'lumot berildi.*

***Kalit so'zlar:** xorijiy til, metodika, boshlang'ich ta'lim, interfaol usullar, "Play"metodi, o'yinlar, multfilm, rol ijro etish, mavzuga oid muhit.*

Barchamizga ma'lum bo'lganidek, hozirgi kunda xorijiy tillarni o'rganish zamon talabi bo'lib kelmoqda va bu talab nafaqat yuqori sinf o'quvchilarini, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham chetlab o'tmasdan qolmadi. Shu sababli ham ayrim maktablarda xorijiy tillarni o'qitishda o'qish malakalarini hosil qilish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda chet tili orqali ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol usullar va ilg'or pedagogik texnologiyalar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim tizimining hamma sohalarida ham pedagoglar dars jarayonida turli xil interfaol usullardan foydalanishadi, lekin boshlang'ich sinflarda xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda xorijiy til o'qituvchisi o'quvchilarning psixologik, fiziologik va pedagogik holatlarini o'rganib, darsning maqsad va mazmunidan kelib chiqib, interfaol usullarni darsda qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

Bolalarga xorijiy tillarni mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan,

ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari odatdagidek yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatishi mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan turli xildagi o'yinlar;
- multfilmlar;

Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalarga qiziq va til o'rganishlari uchun foydali yo'l.

- rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, qarg'aning qag'illashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvon ekanligini ko'rsatish mumkin.

- mavzuga oid muhit;

O'quvchilar tilni yaxshi o'rganish maqsadida o'qituvchilar mavzuga mos bo'lgan muhitni yaratib bera olishi kerak. Masalan: travelling, birthday, in the festivals va boshqalar. Travelling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu muhitlar o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.

Murakkab mavzularni o'quvchilar osongina tushunishlari uchun pedagogik texnologiyalarning turli xil usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.. Shuningdek, malakali xorijiy til o'qituvchilariga boshlang'ich sinfda «Play» metodidan foydalanish tavsiya qilinadi. «Play» metodidan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tili darsida quyidagicha foydalaniladi: o'qituvchi dastlab o'quvchilarni ikki yoki uch guruhga bo'ladi. Ularga tanish bo'lgan bir so'zni aytadi va ma'lum bir chegaralangan vaqt beradi. O'quvchilar shu so'zga aloqador bo'lgan so'zlarni daftarga yozadilar. Masalan: «write» so'zini olaylik. Bu so'zning

o'zbekcha tarjimasi «yozmoq»dir. O'quvchi belgilangan vaqt ichida bu so'zga bog'liq boshqa so'zlarni yozishi va gaplar orqali misollar keltirishi kerak. O'yinning asosiy shartlaridan biri shundan iboratki, ular o'yin davomida lug'at, kitob va daftarlaridan foydalanmaydilar. Berilgan vaqt tugagandan keyin guruhlarning topgan misollari to'g'ri va noto'g'riligi aniqlanadi va natijalari baholanadi. Bu metodni qo'llash o'qituvchiga o'quvchilarning fikrlash doirasi va ularning lug'at boyligi qay darajada ekanligini bilishiga yordam beradi. O'quvchilarga esa mantiqiy fikrlash, guruh bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, har bir o'quvchini faollikka undash, o'zlari bilmagan va topolmagan misollarni guruhdoshlari yoki raqib guruh topgan misollar orqali eslab qolishlariga yordam beradi. Bunday metodlar dars jarayonida bir necha marta foydalanilsa, albatta o'quvchilarning so'z boyligi yanada oshadi.

Bu kabi metodlardan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin va ulardan xorijiy til darslarida unumli foydalanilsa bo'ladi. Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'qituvchi o'z darsiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni qanchalik ko'p darajada olib kirsam, o'z o'rnida foydalansa va o'zi ham bunday metodlarni yanada rivojlantirib, yangidan-yangi innovatsiyalar kashf qilsa, ana shundagina u ko'zlagan natijaga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi chet tili darslarini pedagogik texnologiyalardan va turli metodlardan foydalanib shunday tashkil etsinki, u samaraga erishsin. Bizga ma'lumki, xorijiy tillarni o'rganishga nisbatan eng qulay bo'lgan davr 5-10 yosh bo'lib, bu davrda bola tomonidan o'z ona tilini o'rganish tizimi to'liq o'rganilgan bo'lib, xorijiy tilni egallashga ongli ravishda yondashadi, atrofdagilar bilan xorijiy tilda aloqaga kirishish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuning uchun ham xorijiy tillarni o'rganishni erta boshlash samarali hisoblanadi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni interfaol usullar va metodlar orqali o'qitish ularning xorijiy tillarni oson tarzda o'rganishiga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://wordlyknowledge.uz>

2. <https://cyberleninka.ru>
3. <https://www.intereuroconf.com>
4. Zubaydova N.N.Vocabulary task//."Kasbiy fanlar metodikasi", 2016.
5. Zubaydova N.N.The teaching of English for specific purpose, 2019.